https://gospodarkainnowacje.pl GOSPODARKA I INNOWACJE

LABORATORIUM WIEDZY Artur Borcuch

Volume: 35 | 2023

Economy and Innovation

ISSN: 2545-0573

For more information contact: editor@gospodarkainnowacje.pl

# ZINONING ZIYONINING ADABIYOTLARDAGI TASNIFI

**Ismoilova Himoyatxon A**

*Farg'ona davlat universiteti filalogiya fakulteti gumanitar yo'nalishlar bo'yicha chet tillari kafedrasi o'qituvchisi*

A R T I C L E I N F O.

**Kalit so'zlar:** Badiiy adabiyot, ayol obrizi, qatiyati va sabr-bordoshli, xotin-qizlar, tarbiya, ona siymosi, burchlari, odob-axloq.

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada zino nafaqat insoniyat hayoti, balki uning ohirati uchun ham og'ir jazo muqarrar ekanligi ifodalab berilgan. Insoniyat zinodan o'zini asramas ekan, uning hayoti mazmun mohiyatdan chegaralanib qoladi.

http://www.gospodarkainnowacje.pl/ © 2023 LWAB.

Zino shunchalar qabihdirki, u mukammal bir taqvodor insonni ham bir zumda umri davomida ixlos bial bajargan amallarini ham barbod qilishi, tanazulga oilb kelishi maqarrar. Shu ma'noda bir hikoya bayonini talqin qilish joizdir. Adaboyotlarda "Aka-uka- ikki avliyo" nomli hikoyani bayon qilinganini uchratishish mumkin.

"Kitoblarda buning bir misolini bunday bayon etadilar. Bir kotibning ikki o'g'li bor ekan: ikki aka-uka! Bittasi shaharda eski poyafzallarni yamab, yamoqchilik qiladi. Ikkinchisi esa tog'da cho'ponlik qiladi. Ikkisi ham avliyo, ikkisi ham yetishgan-sohib karomat! Allohning avliyolaridan bo'lmish ikki zot! Tog'dagi cho'pon qo'ylarning sutini ro'molchasining ichiga sog'ib,ha, chelakga emas, idishga emas, kubiga emas, ro'molchasining ichiga sog'ib, to'rt uchini bog'lab, shaharga keltitradi. Albatta, ro'molchaning ichida cuv turmaydi, sut turmaydi, oqib ketadi. Ammo uniki oqmaydi! Cho'pon uka ro'molchasining ichiga sutni sog'ib olib, akasining do'koniga kelibdi. Zinapoyalardan tushib, do'konga kiribdi, akasi esa poyafzal yamayotir.

Assalomu alaykum, aka!

- Va alaykum assalom, uka! Hush kelibsan, qandaysan, yahshimisan?
- Tog'dan sut keltirdim
- O'zi cho'pon-da, qo'y boqadi, "Sut keltirdim", deyotir. Akasi esa:
- Ana shu ustunga osib qo'y,-debdi; Ustunda mix bor. Ro'molchani uchlari bog'langan joyidan ustunga osibdi, ro'molcha huddi tulumdek turadi, sut oqmaydi, tommaydi. Suhbatni boshalshibdi. "Qandaysan, yahshimisan", deb hol-ahvol so'rashar ekan, bir mijoz ayol kelib qolibdi.
- Yamoqchi amaki! Poyafzalimning cheti yirtilib qoldi, tikib berasizmi?-debdi. Poyafzalni yechib uzatibdi. U poyafzalni yamoqchiga berar ekan, yamoqchi aka oldiga qarab (ya'ni yerga qarab) poyafzalni olibdi. Ammo tog'lik cho'pon ayolga qarabdi. Ayolga qarar ekan, shu zamon osigliq ro'molchasidan sut toma boshlabdi… Aslida ro'molchadan sutning tomishi odatiy hol edi, ammo avliyoligi uchun, karomati tufayli sut oqmayotgan edi. Biroq nomahramga qarash bilan sut tomchilay boshladi. Shu payt yamoqchi aka bo'limish boshini ko'tarib ukasiga:



Copyright © 2023 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0

- Hey uka! Ko'zinga qara! O'zinga diqqat qil! Nafsinga hokim bo'l! Shaharda yashash tog'da cho'ponlik qilish emas!-debdi.

Ha, shaharda yashash tog'da cho'ponlik qilishga o'xshamaydi. Tog'da besh vaqt nomozni jamoat bilan o'qiymiz. Shaharda balki uyqudan turolmassiz. Balki ba'zi insonlar nomozlarini ham qoldiradi. Bo'lishi mumkin. Yalpi ishlar. Jamoat ishlari shunday qulay joylarda oson bo'ladi-yu, huddi shu tinchlikni, huddi shu savoblarni plyaji bo'lgan daryo, dengiz qirg'oqlarida saqlab qola olasizmi. Ko'zingiz nomahramlarga tushadi va hokazo…"[1]

Bundan ko'rinadiki erkakmi yo ayol ikkalasi ham birdek ma'sul bo'lishi zarur. Quyidagi hikoyada faqat bir sutga ziyon yetdi. Bunga faqat ukaning bir momahramga qarashini o'ziyoq kifoya qildi. Endi anashu ziyo oila yoki farzand kelajagi, ma'naviyati, xulq-atvori yoki sog'lig'iga ziyon yetishi muqarar. Buni bugungi zamon odamlari anglab yetishlari va o'zlariga kerakli hulosa qicharish zarurati bor. Tabiiyki Allohni farishtalari har bir ishni yozib yuradi. Shunday ekan insonning or-nomus, hayo, uyat tuyg'lariga muhtojligi bor. Agar bu ehtiyojlarga inson to'yintirilmasa buning oqibati natijasida nima sodir bo'lishligini bayon qilindi. Zinodan tiyilish va uning oqibatlari to'g'risida diniy manbalarda kerakli ta'limot berib o'tilgan. Zinodan tiyilishning eng mihim ahamiyatga ega yo'llaridan biri insonning islomiy tasavvuf hamda insoniy hayoga qondirilgan bo'lishidir. Shu asnoda Payg'ambar Muhammad sallallohu alayhi va sallam shunday buyuradilar: "Hayo iymondandir" degan ekanlar. Boshqa adabiyotlarda ham hayo masalasiga doir ko'plab manbalar keltirilgan. Masalan, "Bizda uyalmoq go'zal narsa; er kishilarda ham go'zal, ayollarda go'zal narsadir uyalmoq. "Hayo go'zaldir va lekin ayol kishida bo'lsa, yanada go'zalroqdir!"."

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Mahmud As'ad Jo'shon "Tasavvuf va go'zallik" T.: 2004.
2. Tasavvuf haqida tasavvur Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Toshkent; 2019 yil
3. Internet sahifalari; hikmatlar.uz;https//hikmatlar.uz>quote
4. Ismoilova, H. (2022). Commonwealth of Women in Folklore and Written Literature. *Eurasian Research Bulletin*, *8*, 22-24.
5. Ismoilova, H. (2022). Islamic Approaches to the Image of Women. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, *5*, 541-543.
6. Himoyat, I. (2019). THE ROLE OF LITERATURE, ART AND FOREIGN LANGUAGES IN PROMOTING WOMEN'S PARTICIPATION IN SOCIETY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, *7*(12).
7. Himoyat, I. (2019). THE ROLE OF LITERATURE, ART AND FOREIGN LANGUAGES IN PROMOTING WOMEN'S PARTICIPATION IN SOCIETY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, *7*(12).
8. Himoyat, I. (2019). THE ROLE OF LITERATURE, ART AND FOREIGN LANGUAGES IN PROMOTING WOMEN'S PARTICIPATION IN SOCIETY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, *7*(12)
9. Ismoilova, H. A. The Expression of the Husband's Duties to His Wife and the Woman's Place in Religion and Society.
10. Ismoilova, H. (2022). Commonwealth of Women in Folklore and Written Literature. *Eurasian Research Bulletin*, *8*, 22-24.


[1] Mahmud As'ad Jo'shon "tasavvuf va go'zallik" T.: 2004. 180 181 182.B.b



Copyright © 2023 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0

11. Ismoilova, H. (2022). Islamic Approaches to the Image of Women. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, *5*, 541-543.
12. Ismoilova, H. (2022). Islamic Approaches to the Image of Women. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, *5*, 541-543.
13. Ismoilova, H. (2022). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA AYOLLARNING TASNIFI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, *2*(10), 422-425.
14. Ismoilova, H. (2022). Portrait of Women's Place in the Family in Fiction Literature. *International Journal of Formal Education*, *1*(10), 68-72.
15. Ismoilova, H. (2022). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA AYOLLARNING TASNIFI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, *2*(10), 422-425




Copyright © 2023 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0